



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI QUMQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Qumqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston shoh ko‘chasi 1-uy. 190900, tel.: (+99876) 46-52-511, qumhok@exat.uz

2021 - yil 7 - oktabr

190-8-114-Q/21

Qumqo‘rg‘on tuman hokimligi

Qumqo‘rg‘on tumani hokimligi tasarrufida bo‘lgan tumandagi “Bog‘aro” MFY hududidagi 3,5 ga, “Munchoqtepa” MFY hududidagi 1,0 ga va “Azlarsoy” MFY hududidagi 0,9 ga yer maydonlarini viloyat hokimligi "Kichik sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direktsiyasi" davlat muassasasi tasarrufiga olish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 avgustdagi PQ-5228-sonli qarori, Surxondaryo viloyati hokimining 2021 yil 30 avgustdagi 129-8-0-Q/21-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qumqo‘rg‘on tumani hokimligi tasarrufida bo‘lgan tumandagi “Bog‘aro” MFY hududidagi 3,5 ga, “Munchoqtepa” MFY hududidagi 1,0 ga va “Azlarsoy” MFY hududidagi 0,9 ga yer maydonlari viloyat hokimligi “Kichik sanoat zonalarini boshqarish yagona direktsiyasi” davlat muassasasi tasarrufiga o‘tkazib berilsin.

2. Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi tuman bo‘limi (A.Tojiyev) qarorda ko‘rsatilgan yer maydonini viloyat hokimligi “Kichik sanoat zonalarini boshqarish yagona direktsiyasi” davlat muassasasi nomiga huquqiy rasmiylashtirilishini ta‘minlasin.

3. Mazkur qaror bir kun muddatda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida (qumqorgon.uz) e‘lon qilinsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Ch.Shaymurotov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳоқими



Gapparov R. B.